FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI
ILMIY-METODIK JURNAL
ISSN 3093-8694 ◆ saen.uz
2026-yil
10 (2)-son

UDK: 37.013:004

Abdullayeva Gulchexra Abdullajonovna,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TARBIYA FENOMENI

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli transformatsiya davrida tarbiya fenomenining mazmun-mohiyati, uning zamonaviy ta’lim va ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o‘rni hamda yosh avlodning ma’naviy-axloqiy kamolotiga ta’siri yoritilgan. Raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va virtual muloqot muhitining tarbiyaviy jarayonga ko‘rsatayotgan ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli muhitda yoshlarning axborot madaniyati, tanqidiy fikrlashi, mas’uliyati va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlariga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, tarbiya fenomeni, raqamli muhit, ma’naviy-axloqiy tarbiya, raqamli madaniyat, axborot savodxonligi, yoshlar, pedagogik jarayon, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy tarmoqlar.

ФЕНОМЕН ВОСПИТАНИЯ В ЭПОХУ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Аннотация. В статье раскрывается сущность феномена воспитания в эпоху цифровой трансформации, его роль в современной системе образования и социальных отношений, а также влияние на духовно-нравственное развитие подрастающего поколения. Анализируется воздействие цифровых технологий, социальных сетей и виртуальной коммуникационной среды на воспитательный процесс. Особое внимание уделяется педагогическим возможностям формирования информационной культуры, критического мышления, ответственности и нравственных ценностей молодёжи в цифровой среде.

Ключевые слова: цифровая трансформация, феномен воспитания, цифровая среда, духовно-нравственное воспитание, цифровая культура, информационная грамотность, молодёжь, педагогический процесс, критическое мышление, социальные сети.

THE PHENOMENON OF EDUCATION AND UPBRINGING IN THE ERA OF DIGITAL TRANSFORMATION

Abstract. This article explores the essence of the phenomenon of upbringing in the era of digital transformation, its role in contemporary education and social relations, and its influence on the moral and spiritual development of the younger generation. It examines the impact of digital technologies, social networks, and virtual communication environments on the upbringing process. Particular attention is paid to the pedagogical potential of developing information culture, critical thinking, responsibility, and ethical values among young people in the digital environment.

Keywords: digital transformation, phenomenon of upbringing, digital environment, moral and spiritual education, digital culture, information literacy, youth, pedagogical process, critical thinking, social networks.

KIRISH

Bugungi kunda raqamlashtirish termini barcha sohalarda keng qo‘llanilmoqda va axborotni raqamli formatga aylantirish jarayoni bilan bog‘liq. Pedagogika sohasida raqamlashtirish o‘quv jarayonini optimallashtirish, ta’lim resurslarini yaratish, медиапедагогикани ривожлантириш va tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil etish imkoniyatini beradi. Raqamlashtirish jarayoni axborotni raqamli formatga aylantirishni anglatadi. Raqamlashtirishning jamiyatda keng tarqalishi ta’lim va tarbiya jarayonlarini ham o‘zgartirmoqda. Bugungi kunda raqamlashtirish nafaqat iqtisodiyot, tibbiyot yoki davlat boshqaruvida, balki ta’lim tizimida ham muhim ahamiyatga ega. Raqamli pedagogika, elektron baholash tizimlari, onlayn platformalar, interaktiv ta’lim resurslari orqali o‘quvchilarni faol o‘rganishga jalb qilish, mustaqil fikrlash va axborotni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin.

Tor ma’noda raqamlashtirish axborotning raqamli shaklga aylanishi bo‘lib, u xarajatlarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va yangi imkoniyatlarni yaratish bilan bog‘liqdir. Keng ma’noda esa raqamlashtirish ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, pedagogik jarayonlarni transformatsiya qilish va axborotni yaratish, qayta ishlash va uzatish texnologiyalarini jamlashni anglatadi. Shu tariqa, pedagogik yondashuvda raqamlashtirish o‘quv jarayonini zamonaviy talablar bilan uyg‘unlashtiradi. Bu o‘quvchilarda raqamli savodxonlikni rivojlantirish, onlayn muhitda axloqiy xulq-atvorni shakllantirish, ta’lim resurslaridan samarali foydalanish va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Raqamli transformatsiya (ingl. *digital transformation, DT*) tashkilotlar va jamiyat faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish, mavjud jarayonlarni takomillashtirish hamda yangi imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan kompleks jarayondir. U nafaqat texnologik vositalardan foydalanish, balki ularni strategik maqsadlarga erishish, samaradorlikni oshirish va innovatsiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirishni ham anglatadi. Raqamli transformatsiyaning samaradorligi tashkilotning raqamli rivojlanish ko‘rsatkichlari va raqamli yetuklik darajasi orqali baholanadi.

Raqamli transformatsiyaga oid ilmiy adabiyotlar tahlili ushbu tushunchaga nisbatan yagona yondashuv shakllanmaganligini ko‘rsatadi. Mavjud ilmiy qarashlarda u, asosan, raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida yuzaga keladigan tashkiliy o‘zgarishlar, raqamli muhitga moslashish, jarayonlarni avtomatlashtirish va faoliyat samaradorligini oshirish bilan izohlanadi. Xususan, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar va bulutli texnologiyalar qaror qabul qilish jarayonlarini takomillashtirish hamda yangi imkoniyatlarni yuzaga chiqarishda muhim vosita hisoblanadi.

«Raqamli transformatsiya» atamasi dastlab 1990-yillarda biznes va iqtisodiyot sohalarida qo‘llanila boshlagan bo‘lsa-da, ta’lim tizimida u kengroq ijtimoiy-peda-

gogik mazmun kasb etadi. Mazkur jarayonni ta’lim sohasida faqat texnologik yangilanish emas, balki ijtimoiy-madaniy va pedagogik o‘zgarishlar majmuasi sifatida baholash lozim.

Raqamli transformatsiya ta’lim-tarbiya tizimida bir qator muhim o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Birinchidan, didaktik jarayon interaktiv texnologiyalar, masofaviy ta’lim va AR/VR platformalari orqali takomillashadi. Ikkinchidan, tarbiya mazmuniga raqamli madaniyat, axloqiy me’yorlar va onlayn muloqot etikasi singdiriladi. Uchinchidan, pedagogning vazifasi o‘zgarib, u bilim beruvchi bilan bir qatorda raqamli muhitda yo‘naltiruvchi va maslahat beruvchi sifatida ham namoyon bo‘ladi. To‘rtinchidan, axborotning ortiqchaligi, virtual muloqotning ustuvorligi va real ijtimoiylashuvning cheklanishi kabi xavflarni hisobga olish zarurati yuzaga keladi.

Milliy miqyosda O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-martdagi PQ–110-son qarori hamda «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasi raqamli transformatsiya jarayonlarining institutsional-huquqiy asoslarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur hujjatlar doirasida jamiyatning turli sohalariga, jumladan, ta’lim tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish va inson kapitalini rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida qaraladi.

Shu asosda tadqiqotda raqamli transformatsiya sharoitida tarbiya fenomenining mazmuniy va metodologik o‘zgarishlarini aniqlash maqsadida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va ilmiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR

Bugungi globallashuv va tezkor o‘zgarishlar sharoitida jahon hamjamiyati, jumladan, O‘zbekiston jamiyati ham yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamol, ijtimoiy mas’uliyatli va raqamli muhitga moslashgan shaxs sifatida shakllantirish zarurati bilan yuzma-yuz kelmoqda. Bu jarayonda ta’lim va tarbiya tizimida raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish, axborot xavfsizligini ta’minlash, tanqidiy fikrlash va mediama’naviyatni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, axborot oqimining ortishi, ijtimoiy ziddiyatlar, zo‘ravonlik va befarqlik holatlarining kuchayishi tarbiya fenomeniga yangicha yondashuvni taqozo etmoqda. Tarbiya fenomeni insonning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi omil bo‘lib, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy jarayonlar bilan uzviy bog‘liqdir. Mediamakonda inson hayotining qadrsizlanishi bilan bog‘liq salbiy holatlarning namoyon bo‘lishi, jumladan, ma’naviy bo‘shliq va axloqiy me’yorlarning susayishi tarbiyaviy jarayonlardagi muammolarni ham yuzaga chiqaradi. Tarbiya insonning shaxsiy, ma’naviy va ijtimoiy kamolotini ta’minlaydigan maqsadli va uzluksiz jarayon hisoblanadi. Lug‘aviy jihatdan «tarbiya» so‘zi arabcha «robba» o‘zagidan kelib chiqqan bo‘lib, bunyod etish, to‘g‘rilash va yo‘l-yo‘riq berish kabi ma’nolarni anglatadi.

«Fenomen» atamasi yunoncha *phainomenon* so‘zidan olingan bo‘lib, namoyon bo‘luvchi hodisa ma’nosini bildiradi. Aristotel ushbu atamani ko‘rinuvchi va tuyuluvchi hodisalar mazmunida qo‘llagan bo‘lsa, I. Kant fenomen tushunchasi orqali inson tajribasida namoyon bo‘ladigan hodisalarni mohiyatdan farqlagan. Uning qarashlariga ko‘ra, fenomen insonning sezgi va aqliy qobiliyatlari orqali idrok etiladigan, tajribada namoyon bo‘luvchi hodisadir.

Tarbiya fenomeni jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamoloti bilan bog‘liq murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan u shaxsning ijtimoiy, ma’naviy va individual rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi hodisalar majmuasini ifodalaydi. Tarbiya o‘z mazmuni va ta’sir xususiyatiga ko‘ra ijobiy yoki salbiy natijalarni yuzaga keltirishi mumkin.

Ijobiy ma’noda tarbiya fenomeni shaxsda ma’naviy barkamollik, ijtimoiy faollik, mas’uliyat, vatanparvarlik, insonparvarlik va axloqiy me’yorlarga hurmat kabi sifatlarni shakllantirishda namoyon bo‘ladi. Bunda jamiyat qadriyatlari, shaxsning ichki ehtiyojlari va ijtimoiy talablar o‘zaro uyg‘unlashadi. Aksincha, tarbiyaviy ta’sirning yetarli darajada tashkil etilmasligi, salbiy ijtimoiy muhit va metodik kamchiliklar shaxsda befarqlik, mas’uliyatsizlik, axloqiy me’yorlarni inkor etish hamda deviant xulq-atvor kabi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ayniqsa, raqamli muhit ta’sirida axborot immunitetining zaiflashuvi, virtual makonga haddan tashqari bog‘lanish va mustaqil fikrlash qobiliyatining susayishi kabi muammolar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois tarbiya jarayonida yuzaga keladigan salbiy fenomenlarni aniqlash, tasniflash va ilmiy jihatdan tahlil qilish zamonaviy pedagogikaning muhim vazifalaridan biridir.

Demak, tarbiyani fenomen sifatida o‘rganish uni insonning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida namoyon bo‘ladigan, kuzatish va baholash mumkin bo‘lgan yaxlit hodisa sifatida talqin etish imkonini beradi. Bu esa tarbiyaning nafaqat bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, balki insonning ichki dunyosi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o‘rnini ham asoslaydi.

MUHOKAMA

Zamonaviy jamiyatda tarbiya faqat bilim berish yoki intizomni ta’minlash bilan cheklanib qolmasdan, shaxsning ichki ma’naviy olamini, ruhiy barqarorligini va ijtimoiy faolligini shakllantirishga qaratilgan yaxlit tizim sifatida namoyon bo‘lishi lozim. Inson ruhiyati va tafakkurida yuz berayotgan keskin o‘zgarishlar tarbiyaning mazmuni, shakli va usullarini qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Ayniqsa, axborotlashgan jamiyatda o‘sib kelayotgan yosh avlodni tanqidiy fikrlash, axloqiy tanlov qila olish va hayot mazmunini anglashga o‘rgatish tarbiyaning ustuvor vazifasiga aylanmoqda.

1-jadval. An’anaviy va raqamli muhitda tarbiya fenomeni: qiyosiy tahlil jadvali

Raqamli transformatsiya sharoitida tarbiya fenomeni tahlili

Qiyosiy mezonlar	An’anaviy muhitda tarbiya	Raqamli muhitda tarbiya	O‘zgarish va zamonaviy xususiyatlar
Tarbiyaviy jarayon shakli	Shaxsiy va ijtimoiy interaksiyalar, oila va maktab ta’siri	Axborot oqimi, onlayn platformalar, virtual muhit orqali	Tarbiya jarayoni individuallashgan, interfaol va texnologiya asosli
Asosiy ta’sir mexanizmlari	Oqituvchi, ota-ona, ustoz-shakillantiruvchi interaksiyalar	Gadjetlar, ilova va veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar	Shaxs virtual va real muhitni bir vaqtda qabul qiladi
Dialog va muloqot usullari	To‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot, guruh va sinf muhiti	Onlayn chatlar, videokonferensiyalar, interaktiv platformalar	Muloqot shakli masofaviy va asinxron xarakterga ega
Ma’lumot qabul qilish va fikrlash	Chuqur tahlil, sabab-oqibat bog‘lanishini tushunish	Jamlanmagan fikrlash; qisqa vizual va audiomateriallarga tayanish	Aql-idrok jarayoni tezkor, ammo chuqur fikrlash cheklangan
Tarbiya maqsadi va vazifalari	Shaxsning ijtimoiy va axloqiy rivojlanishi	Multimedia, raqamli salohiyat va kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish	Maqsadlar zamonaviy, texnologiya va raqamli muhit talablariga mos

Qiyosiy tahlil jadvalida ko‘rsatganidek, raqamli transformatsiya sharoitida tarbiya fenomeni an’anaviy muhitdan farq qiladi: tarbiyaviy jarayon individuallashgan va texnologiya asosli, ta’sir mexanizmlari gadjet va onlayn resurslarga tayanadi, muloqot asinxron va masofaviy shaklda kechadi, fikrlash jarayoni tezkordir, lekin fikrlarni chuqurligi va ularni jamlash chegaralarini sezish mumkin. Shu bilan birga, tarbiya maqsadlari va vazifalari zamonaviy talablarga mos ravishda kreativ va raqamli salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan.

Tarbiya fenomeni insonning jismoniy, aqliy va ma’naviy kamoloti birligini ta’minlagandagina samarali bo‘ladi. Zo‘ravonlik, manmanlik va befarqlikka qarshi immunitet aynan tarbiya jarayonida shakllanadi. Shu ma’noda, tarbiya insonni jamiyat va tabiat oldidagi mas’uliyatini anglaydigan, o‘z xatti-harakatlarining oqibatini baholay oladigan ongli shaxs sifatida voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Antropotsentrik yondashuv doirasida tarbiya insonni barcha qadriyatlarning markaziga qo‘ygan holda, uning axloqiy tanlovi va ma’naviy pozitsiyasini belgilab beradi. Terrorizm va boshqa ijtimoiy xavfli illatlar aynan tarbiya tizimidagi bo‘shliqlarni to‘ldirish orqali bartaraf etilishi mumkin. Bu esa tarbiyani jamiyat xavfsizligi va barqaror rivojlanishining strategik omili sifatida qarashni taqozo etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tarbiya fenomeni inson hayotining mazmunini anglash, uning ma’naviy qadr-qimmatini yuksaltirish hamda jamiyatda sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirishning muhim omilidir. Jismonan sog‘lom, ma’nan yetuk va ijtimoiy mas’uliyatli shaxsni tarbiyalash orqaligina barqaror taraqqiyot va insonparvar jamiyatni ta’minlash mumkin. Mazkur bobda tarbiya fenomeni keng qiyosiy

tahlil qilinib, an’anaviy va raqamli muhitda shaxs rivojlanishining o‘ziga xos jarayonlari hamda ta’sir mexanizmlari yoritildi. An’anaviy muhitda tarbiya, asosan, bevosita shaxslararo va ijtimoiy munosabatlar orqali shakllansa, raqamli muhitda axborot oqimi, virtual makon va zamonaviy texnologiyalar vositasida namoyon bo‘ladi. Shu bois ushbu muhitlarni qiyosiy tahlil qilish orqali tarbiya fenomenining o‘zgarishlari va zamonaviy xususiyatlarini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli transformatsiya tarbiyaning maqsadi, vazifalari, shakl va metodlariga ham yangi talablarni qo‘ymoqda. Xususan, masofaviy ta’lim, interaktiv o‘yinlar va onlayn platformalardagi tarbiyaviy vositalar an’anaviy tarbiya usullaridan o‘ziga xos jihatlari bilan farqlanadi. Mazkur o‘zgarishlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish ushbu paragrafning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot raqamli transformatsiya sharoitida tarbiya tushunchasining mohiyatini ochib berish hamda uni zamonaviy ijtimoiy, falsafiy va pedagogik yondashuvlar asosida qayta talqin qilishga qaratilgan. Unda tarbiya fenomeni an’anaviy va raqamli muhit kesimida qiyosiy tahlil qilinib, uning mazmuniy, funksional va metodologik o‘zgarishlari asoslab beriladi. Shu orqali raqamli muhit ta’sirida tarbiyaning maqsadi, vazifalari, shakl va metodlarida yuz berayotgan transformatsiyalar nazariy jihatdan izohlanadi hamda keyingi bo‘limlarda yoritiladigan tarbiyaviy mexanizmlar, pedagogik texnologiyalar va kvalimetrik yondashuvlarni o‘rganish uchun nazariy asos yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мардиева Г. К., Абдуллаева Г. А. Тарбиявий ишларини баҳолаш мезонлари // Academic Research in Educational Sciences. – 2023. – Т. 5. – № NUU Conference 2. – Б. 102–106.

2. Абдуллаева Г. А. Педагогик оғиш ва уни коррекциялаш // Academic Research in Educational Sciences. – 2023. – № NUU Conference 3. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/pedagogik-o-ish-va-uni-korrektsiyalash (мурожаат санаси: 24.02.2025).

3. Абдуллаева Г. А., Аллаярова С. Н. Тарбия жараёни сифатини квалиметрик мониторинг қилиш: муаммо ва ечимлар // Современное образование (Узбекистан). – 2021. – № 12 (109). – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/tarbiya-zharayoni-sifatini-kvalimetrik-monitoring-ilish-muammo-va-echimlar (мурожаат санаси: 14.05.2025).

4. Абдуллаева Г. Квалиметрический подход к воспитательным работам в общеобразовательных школах // Предпринимательство и педагогика. – 2024. – Т. 2. – № 3. – С. 97–104. – URL: https://inlibrary.uz/index.php/entrepreneurship-pedagogy/article/view/33189 .

5. Sodiqov U. J., Xamroqulova Sh. E. Davolash pedagogikasining kelib chiqish tarixi // Academic Research in Educational Sciences. – 2024. – № NUU Conference 1. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/davolash-pedagogikasining-kelib-chiqish-tarixi (murojaat sanasi: 14.05.2025).